

**O‘ZBEKISTON SSRNING AGROSANOAT MAJMUIDA
BOG‘DORCHILIK TARMOG‘INING RIVOJLANISHI****Aslonov Islombek Soyibjon o‘g‘li**

Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston SSR davrida agrosanoat majmui tarkibida bog‘dorchilik tarmog‘ining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan. Unda meva yetishtirishning hududiy xususiyatlari, yangi navlarning joriy etilishi, sug‘oriladigan dehqonchilik tizimining samaradorligi hamda ilmiy-tadqiqot muassasalarining roli yoritiladi. Shuningdek, bog‘dorchilik mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash va eksportga yo‘naltirish bo‘yicha ishlab chiqilgan davlat dasturlari, kooperativlar faoliyati, texnik-modernizatsiya jarayonlari va mehnat unumdorligining oshishi bilan bog‘liq o‘zgarishlar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston SSR, agrosanoat majmui, bog‘dorchilik, meva yetishtirish, qishloq xo‘jaligi siyosati, navchilik, irrigatsiya, kooperativlar, qayta ishlash sanoati, iqtisodiy rivojlanish.

O‘zbekiston mamlakatning asosiy paxta bazasi bo‘lishdan tashqari bu yerda xo‘l meva, uzum, poliz va boshqa qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish bo‘yicha ilg‘or respublikalardan biri bo‘lib keldi. Tadqiq etilayotgan yillarda mavjud bo‘lgan Respublika agrosanoat majmuasi xalq xo‘jaligining eng yirik sohasi bo‘lib, bu kompleks respublika aholisini oziq - ovqat va boshqa mahsulotlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga qisman bo‘lsada xizmat qildi. Surxondaryo viloyatining Boysun tumanining tabiiy sharoiti mevachilikni rivojlantirish uchun juda qulay bo‘lgan. Tumandagi Avlodsoy, Padansoy, Kofrunsoy kabi soy va buloqlar ko‘p bo‘lib, 1965 yillarda ularning suvi bilan 6 ming gektarga yaqin ekin maydonlari bahordan kuzgacha 2-3 marta, ba’zi joylarda 5-6 martagacha sug‘orilgan. Lekin, paxtachilikka



e'tiborning qaratilishi bilan bu yerda meva yetishtirishga yetarli darajada e'tibor berilmadi. Masalan, 1958 yilda "Boysun" sovxozida 550 gektar mevazor bog' bo'lib, yana qo'shimcha 120 gektar yangi bog'lar barpo qilingan. lekin, 1963 yilda 490 gektarga tushib qolgan. Shu davrda tokzorlar 122 gektarga kamayib ketdi. Har gektar bog'dan 1958 yilda 27,1 syentner hosil olingan bo'lsa, 1962 yilda 14,5 va 1963 yilda 3,4 syentner hosil olingan.

O'zbekiston KP MQning 1970 yil 20 iyul "Poliz ekinlari, kartoshka, meva va uzum yetishtirishni ko'paytirish, tayyorlashni yaxshilash va bu mahsulotlar bilan mahalliy aholini ta'minlash chora - tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida 1971 yil O'zbekiston SSR qishloq xo'jalik ministrligidan M.Mirzayev va Y.Karimovlar rahbarligida Toshkent oblasti va Samarqand oblastlarini tekshirish uchun komissiya yuborildi. Tekshiruvlar natijasida Toshkent oblastining Bo'stonlik, Kalinin, Orjanikidze, Yangiyo'l rayonlarida yerlar haydalmagan, haydalgan yerlar ham talabga javob bermaganligi aniqlangan. Ko'pgina kolxoz va sovxozlarda urug'chilik talabga javob bermagan, urug'chilikning agrotexnik holatlari yaxshi yo'lga qo'yilmagan. Bog' va uzumzorlarga qarov talabga javob bermagan, uzumzorlar qurib borgan, uzumlar tortilmagan, ularga 4 marta dori sepish o'rniga 1,5 marta dori sepilgan. Joylarda o't o'sib ketish holatlari kuchli bo'lgan. Brigadirlar hisob - kitobni o'zlari qilganlar, kartalarni o'zlari belgilaganlar, sug'orish ishlari necha marotaba amalga oshirilganini hech kim bilmaganlar. Hosil o'z vaqtida yig'ilmagan, yig'ilgan hosil ham chirib ketgan. Yo'llar talabga javob bermagan, transport yetishmagan. Agrotexnik tadbirlar o'z vaqtida sifatli amalga oshirilmaganligi sababli bog'larda olma ko'chatlarni zararkunandalar bosib ketgan.

1980 yil O'zbekiston SSRda ham "Uzplodoovoshchvinprom" agrarsanoat birlashmasi bazasida 1981-1985 yillarni o'z ichiga olgan o'n birinchi besh yillikda "Uzplodoovoshchvinprom" birlashmasi o'zida 11 ta konserva, 15 ta vinochilik korxonasini, 4 ta sovxoz-zavodni va 105 ta sovxozni

birlashtirgan bo'lsa 1981 yilda bu tizimda 43 ta korxona, 204 ta sovxoz-zavod va sovxoz, shuningdek firmali chakana savdo tarmog'i, markaziy konstruktorlik-texnologik byuro, loyihalash instituti, ixtisoslashtirilgan va avtotransport birlashmasi, 2 ta qurilish-montaj tresti va bir qator boshqa xizmat ko'rsatadigan korxona va tashkilotlar kiritildi. Ular tarkibida 170 mingdan ziyod kishi ishladi. "O'zbekiston SSR Meva-sabzavot ministrligi" tashkil etilgach, uning ixtiyoriga sabzavot, kartoshka, meva va uzum yetishtirishga ixtisoslashtirilgan sovxozlar hamda mahsulotlarni qayta ishlaydigan sanoat korxonalari berildi. Ministrlilik kolxozlar, sovxozlar va boshqa tizimlardagi meva-sabzavot mahsulotlarini tayyorlash, umumittifoq fondiga yetkazib berish, ular bilan savdo qilish va bu mahsulotlarni qayta ishlash bilan shug'ullandi.

1982 yil qabul qilingan "1990 yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan maxsus oziq-ovqat dasturi"da RSFSR, Ukraina SSR va Qozog'iston SSRning janubiy rayonlarida, O'rta Osiyo, Zakavkaziye respublikalarida va Moldaviya SSRda meva – sabzavot mahsulotlari yetishtiruvchi va qayta ishlovchi yirik ixtisoslashtirilgan xo'jaliklar va agrosanoat korxonalarini vujudga keltirish, shu rayonlarni mamlakat markazida hamda Yevropa qismi shimolidagi shaharlar, Ural, Sibir va Uzoq sharq aholisini issiqsevar sabzavot, meva va rezavor meva mahsulotlariga bo'lgan talabi asosan ularni iste'mol rayonlari yetishtirish hisobiga qondirilishi belgilab berildi. 1982 yil SSSR Ministrlar Soveti Agrosanoat komissiyasining yig'ilishida ham Oziq – ovqat dasturidan kelib chiqib aholini kartoshka bilan ta'minlashni ko'paytirish maqsadida Ukraina SSR, Kavkaz orti va O'rta Osiyo respublikalarida erta pishar kartoshka ekiladigan yerlarni ko'paytirish vazifalari belgilandi. Biroq, 1980 - 1985 yillar davomida agrosanoat majmuasiga qarashli 245,9 ming gektar yangi yerlar o'zlashtirilib, bu kompleksga qarashli korxonalarda sabzavot yetishtirish 2,8 foiz, uzum – 2,8 foiz, tuxum – 7 foizni tashkil etdi ish haqi faqat 1,8 foizga ko'paydi. Biroq, bu yillarda ham salbiy holatlar ko'zga tashlandi. Jumladan,



agrosanoat majmuasiga qarashli korxonalar berilgan rejalarini bajarmaslikdan ko'rgan zararining 624 mln. rubl Qashqadaryo viloyatiga, 153 mln. rubl Buxoro viloyatiga, 81 mln. rubl Jizzax viloyatiga to'g'ri keldi. Bu kompleksda sabzavot, kartoshka, mevalarni tashish va saqlash hamda uni qayta ishlash ham qiyin masalalardan biri bo'lgan. Respublikada sabzavot va mevalar saqlanadigan omborxonalar bilan atiga 50 foizi ta'minlandi. Omborlarda sanitariya - gigiyena ishlari orqada qolgan, mevalarni yaxshi saqlashning to'liq imkoni ham yo'q edi. Bunday ahvolda yetishtirilgan mahsulotning sifati buzilib, iste'molchiga tezda yetib borish imkonini bermas edi. Hamonki butun SSSR bo'yicha O'rta Osiyo va Qozog'iston respublikalarida yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari bo'yicha sobiq ittifoqdosh respublikalar orasida eng yuqori o'rinda turardi. 1981 yilda O'zbekiston SSR RSFSR, Ukraina SSR, Belorussiya SSR, Boltiqbo'yi respublikalariga, Moskva, Leningrad, shaharlariga 293 ming tonna piyoz jo'natdi. Yetishtirilgan hosilni tashib ketish yoki boshqa mahsulotlarni respublikaga keltirishda transport xizmatini rivojlantirish ham talab etilar edi. Yangi o'zlashtirilgan yerlarda tashkil etilgan kolxoz va sovxozlar temiryo'l stansiyalaridan, daryo pristanlaridan uzoqligi yuk tashishda muammolarni keltirib chiqarganligi sababli, transportga ham alohida e'tibor qaratildi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, qishloq joylarda 20 ming yuk avtomobillari qishloq xo'jalik mahsulotlarini yig'ib olish va qayta ishlash davrlarida mahsulotning 70 foizdan ortig'i mana shu avtotransportlarda tashildi. 1982 yilda 3,6 mln. tonna paxta, 1,8 mln. tonna chigit, 2.4 mln. tonna meva – sabzavot, poliz mahsulotlari va xo'l meva 700 ming tonna, 400 ming tonna sholi tashish xizmati amalga oshirildi. Toshkent oblasti kartoshka va sabzavot yetishtirish bo'yicha yuqori o'rinlarni egallab keldi. Jumladan, 1970 yillarda 33 ta xo'jalik sabzavot yetishtirdi. Uchdan bir qismi respublikadan olib chiqib ketildi. Samarqand viloyatida ham muammolar yetarli bo'lgan. Oblastning Xatirchi, Samarqand, Urganch rayonlaridagi bog'larda hosil o'z



vaqtida terib olinmagan, yerlar piyoz ekishga tayyorlab qo'yilgan, lekin piyoz urug'i yetishmagan. Mahsulotlarni olib chiqib ketishda yoki kerakli joyga yetkazish masalasining o'zi ham muammo bo'lgan. Hatto, Xalq xo'jalik kengashlari tugatilgan vaqtdan boshlab bu holat davom etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Акрамов З. Бойсун бойликлари // Қизил Ўзбекистон. 1965 йил 8 январь.
2. Озиқ -овқат программаси ва автотранспорт // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. 1983. - №9, - 10 б.
3. Ўз МА Р-90, рўйхат -10, йиғма жилд – 4452, - 197 варақ
4. СССРнинг 1990 йилгача бўлган даврга мўлжалланган озиқ-овқат программаси // // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. 1982. -№6, 13-б.
5. Катта меҳнат ғалабаси // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. 1982. - №1, 4 б.
6. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. – Тошкент, 1986. – № 2. – 5 б.

